O‘qish savodxonligi

3

IV qism



novda
edutainment

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

U. B. Aydarova, N. K. Azizova

O‘qish savodxonligi

3-sinf

IV qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

novoa
edutainment
Toshkent – 2023



UO'K 808.545(075.3)
BBK 74.202.5ya72
T 61

Aydarova U. B., Azizova N. K.
O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. IV qism. / U. B. Aydarova, N. K. Azizova. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



Savollarga javob bering



Guruh bo'lib ishlang



Diqqat bilan o'qing



Bu – qiziq!



Tinglang



Topshiriqni bajaring



Uyga vazifa



Izohli lug'at

ISBN 978-9943-9716-1-5

© U. B. Aydarova, N. K. Azizova
© "Novda Edutainment", 2023

I bo‘lim.
Bola shirin – odobi undan shirin





Taniqli bolalar shoiri Jo‘ra Rahim 1933-yilda Namangan viloyatining Chortoq tumanida tug‘ilgan. Shoirning “Qo‘ng‘iroq”, “Momaqaldiroq”, “Bir butun oy, o‘n ikki yulduz” deb nomlangan o‘ndan ortiq kitoblari nashr etilgan.

Gaplarni o‘qing. Ularda o‘zaro qanday o‘xshashlik borligini ayting.

Tabiat qo‘yniga chiqqan bolalar atrof-muhitni asrab, unga ozor yetkazmadilar.

Nargiza maktabdan qaytgach, onasining yumushlariga yordam berishdan hech erinmaydi.

Anvar katta yo‘ldan o‘tayotib, o‘zidan kichik sinfda o‘qiydigan Malikning qo‘lidan ushlab oldi.

Bir butun oy, o‘n ikki yulduz

Jo‘ra Rahim

Juda qadim zamonda
Chol-u kampir bor edi.
O‘g‘il va qiz ko‘rmagan,
Dastyorga-chi, zor edi.

Ikkalasi ham ahil,
Aqlda edi dono.
Shuning uchun qo‘shnilar,
Hurmatlardi doimo.
Kampir uyda o‘tirar,
Qilib uyning yumushin.
Chol omoch-la yer haydab,
Tamomlar dala ishin.
Bug‘doy o‘rish ko‘yida,
Chol qirga ketdi bir kun.
Kampir qoldi uyida,
Ovqat tayyorlash uchun.
Mana, ovqat ham tayyor,
Kim olib borar qirga?
Kampir yalinib ko‘rdi,
Qo‘shni o‘g‘li Tohirga:
– O‘rgilay, o‘g‘lim, shuni
Eltib bergin bobongga.
“Bir butun oy, o‘n ikki
Yulduz”, – degin bobongga.
– Ha, xo‘p, – deya Tohirjon
Jo‘nabdi qir tomonga.
Yo‘l yurish va charchoqlik
Oxir tegibdi jonga.
So‘ng madori quribdi,
Qorni ocha boshlabdi.
Tugunni yerga qo‘yib,
Asta yecha boshlabdi.

Tugunda so'lqillama
Bir qatlama bor ekan.
Idishda chuchvaralar
Terilgan qator ekan.
Chuchvara, qatlamadan
Keragicha yebdi u.
"Qolganini eltarman
Bobomlarga", – debdi u.
Yetib borib boboga
Topshirarkan tugunni,
Debdi: – Buvim-chi, menga
Tayinladilar shuni:
– Bu tugunni bobongga
Eltib bergin, – dedilar.
– "Bir butun oy, o'n ikki
Yulduz, degin", – dedilar.
Tohirni alqab-yulqab
Bobo ovqatni yebdi.
Idishni bera turib,
Tohirga shunday debdi:
– Kech qolding, o'g'lim, yugur,
Adashib qolma qirda.
"Yarimta oy, oltita
Yulduz", – deb qo'y kampirga.
– Ha, xo'p, – deya Tohirjon
O'qday uchib ketibdi.
Kechga qolmay kampirning
Huzuriga yetibdi.

– Siz yuborgan ovqatni
Bobom maqtab yedilar.
“Yarimta oy, oltita
Yulduz”, – degin dedilar.
– Tugunni yechibsan-a? –
Deb so‘rab qoldi kampir.
– Yechganim yo‘q, buvijon, –
Tohir bermay turdi sir.
– Shoshma, shoshma, yulduzim,
Quloq ber, menga qara.
Oltita yulduz o‘zi,
Olti dona chuchvara.
Yarim oy degani –
Yarimta qatlamadir.
Gapimga quloq solib,
Gap qaytarmay tura tur.
Bir butun qatlamadan
Yarmini o‘zing yebsan,
Nega hech tan olmaysan,
Sira yemadim deysan?
O‘n ikki chuchvaradan
Olti dona qolsa ham,
Yeganim yo‘q, deya san
Bo‘yin bermaysan, erkam.
Yebsan, mayli, jon bolam,
Yeganlaring osh bo‘lsin!
Ammo to‘g‘ri gapirgin,
Buviginang o‘rgilsin.

1. Ertak nima haqida ekan?
2. Buvi nima uchun Tohirga ovqatni olib borishni iltimos qildi?
3. *“Bir butun oy, o‘n ikki yulduz”* deganda nimani tushundingiz?
4. Tohir yolg‘on gapirganini buvi qayerdan bildi?
5. *“Yeganim yo‘q, deya san*
   Bo‘yin bermaysan, erkam” misrasini qanday tushundingiz?
6. Ertakda insonning qanday fazilatlari madh etilgan?

omoch – ulov qo‘shib yer haydaydigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog‘och yoki temir asbob
so‘lqillama – liqillab turgan
alqab-yulqab – birovga yaxshilik, baxt-saodat tilash

1. Ertakni rollarga bo‘lib, ifodali o‘qing.
2. Ertak qahramonlariga ta’rif bering.
3. Agar kampir bolaga faqatgina tugunni berib, bu gapni aytmaganda, vaziyat qanday bo‘lar edi? Javobingizni izohlang.

Berilgan maqollarni o‘qing.

Til bilan ye**ch**ilmas.
Tish bilan tugilgan tug‘un

Chiroyli maqtovdan xunuk qat yaxshi.

Rost so‘zni aytay yolg‘on so‘zdan qaytay.

Rasmni so‘zlar bilan ifodalang. Shu so‘zlar ishtirokida ertak mazmuniga mos kichik hikoya tuzing.





Ertakni rollarga bo‘lib o‘qing. Siz shunday holatga duch kelsangiz, nima qilgan bo‘lar edingiz? Fikringizni yozing.

Ajratib ko‘rsatilgan harflarni o‘qing.

Dayo‘uismqrtkhvatreachxreisuitbvuyiyefobyf ogstabndptyisaropadfgr, dxreumqrshtreamyef oadfgnuikyefoubndltydkhvitkhvyrbndiyfob.

Izza

Muhabbat Hamidova

Shahlo – Komilaning dugonasi. Komilaning oyisi uni juda sarishta, chaqqon, oyisining dastyori, deb maqtagani-maqtagan. Komilaning ham dugonasiga havasi keladi. Doim birga o‘ynaydi. Komila, odatdagidek, darslarini tayyorlab bo‘lgach, dugonasining yoniga chiqdi. Shahlo hovliga suv sepayotgan ekan.

– Komila, birpas kutib tur, hovlini supurib olay, keyin o‘ynaymiz, – dedi Shahlo qo‘liga supurgisini olib.

– Mayli, unda men ko‘chaga suv sepib turaman, – dedi Komila va bo‘sh chelakchani qo‘liga oldi.

Shahlo hovlini supurib bo‘lgach, to‘plangan axlatini xokandozga soldi-da, olib borib ko‘cha chetidagi suv to‘lib oqayotgan ariqchaga tashladi.

– Nega bunday qilding? – Komila xafa bo‘lib

so‘radi. – Axir, o‘zing hozir shu ariqchadan suv olib hovliga sepib changini bostirding, hovli salqin bo‘ldi. Men gullaringni shu suvdan sug‘ordim. Suvdan yaxshilik ko‘rib, endi unga yomonlik qilasanmi? Qara, tip-tiniq suvning yuzini loyqalatding. Bu suv qo‘shnining hovlisidan ifloslanib oqadimi endi?

– Nega jahling chiqadi? Hozir tinib qoladi. Men xazonlarni ham doim suvga supurib tashlayman. Hech narsa qilmaydi, buvim aytgan: “Suv yetti marta dumalasa, toza bo‘larkan”, – deya beparvo tirjaydi Shahlo.

– Mening buvim esa boshqacha o‘rgatgan: suvga tupurish, axlat tashlash gunoh. Suv – ko‘pchilikning rizqi. U ham nonday aziz. Suvsiz hayot bo‘lmaydi, nafaqat odamlar, balki jonivorlar, dov-daraxtlar ham suv bilan tirik. Suvni xor qilgan xor bo‘ladi, deyishadi.



Agar tashlangan axlatlar quvurga tiqilib qolsa, ko‘chaga suv toshib ketadi-ku.

– E, bir xokandoz axlat bilan suv tosharkanmi? O‘zing hovli supurmaganing uchun bilmaysan-da. Hozir ko‘pchilik qo‘shnilar suvga supuradi.

– Gapingni qara, sirayam o‘zingga o‘xshamaysan. Sendan xafaman, axir ustozimiz bizga necha marta suvning foydasi haqida aytib bergan. Suvni asrash burchingiz, degan. Endi men seni “Yashil soqchi” guruhidan chiqarishlarini so‘rayman. Sen tabiatning do‘sti emas ekansan. O‘zim ham senga dugona bo‘lmayman. Ol chelagingni.

Komila chelakni Shahloning qo‘liga tutqazdi-da, keta boshladi.

– Komila, jon Komila, to‘xta, to‘xtay qolgin. Endi boshqa bunday qilmayman...



1. Hikoyada qanday muammo ochiq ko‘rsatilgan?
2. Hikoya qahramonlari orqali muallif qanday insoniy fazilatlarni ulug‘lagan?
3. Sizningcha, hikoya nima uchun “Izza” deb nomlangan?
4. Agar Shahlo sizning oldingizda bo‘lib qolganida nima degan bo‘lar edingiz?
5. Shahloning qaysi gaplarini siz ham to‘g‘ri, deb tasdiqlay olasiz?
6. Siz hovlini supurgandan keyin xazonlarni nima qilish kerak deb hisoblaysiz?

Berilgan gaplarni izohlab bering:
Tip-tiniq suvning yuzini loyqalatding.
Suv yetti marta dumalasa, toza bo'larkan.
Suv – ko'pchilikning rizqi.


Hikoyadan suvni asrash haqida aytilgan gaplarni topib o'qing.
Har bir qahramonga xos fazilatlarni ayting.
Mavzuga mos maqol aytib, mazmunini tushuntiring.


Topishmoqning javobini moslashtiring.



Hikoyani o'qing. Shaxsini o'zgartirib, qayta so'zlab bering.

Berilgan bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzib, ularni izohlang.





Mehr urug‘i

(Rivoyat)

Qadim zamonda bir badavlat odam bo‘lgan ekan. U bir kuni tush ko‘ribdi. Tushida bozorda yurgan emish. Bir do‘konning ichiga kiribdi. Sotuvchi chol unga peshvoz chiqib, nima kerakligini so‘rabdi. Haligi odam:

– Men boy-badavlat odamman, hech narsaga hojatim yo‘q, shunchaki aylanib yuribman, – deb javob beribdi. Sotuvchi esa:

– Ey o‘g‘lim, bu dunyoda hamma narsasi bor odam bo‘lmaydi, hatto badavlat odamlarga ham nimadir yetishmaydi, – debdi. Haligi odam o‘ylab turib:

– To‘g‘ri aytasiz, otaxon, lekin menga kerak

narsalar bozorda sotilmaydi-da, men ularning narxini ham bilmayman, – debdi.

– U narsalar nima ekan, balki mening do‘konimda bordir? – so‘rabdi sotuvchi chol.

– Otaxon, ular do‘stlik, muhabbat va oqibat, – debdi haligi odam. Shunda sotuvchi chol:

– O‘g‘lim, bu narsalar juda arzon, lekin shunga qaramasdan o‘ta kamyobdir. Buni qarangki, do‘konimga kirib adashmabsiz, bizda shu narsalar bor, sizga berishim mumkin, – debdi.

– Rostdanmi, qani bir ko‘ray-chi! – debdi u.

Chol peshtaxta ostidan bir quticha olibdi va o‘sha odamning oldiga qo‘yibdi.

– Shumi?! – hayron bo‘libdi kishi va qutichani ochib qarabdi. Uning ichida uch dona urug‘ bor ekan.

– Bular urug‘lar-ku, ularni nima qilaman? – so‘rabdi kishi.

– Ha, bular mehr-oqibat va muhabbat urug‘lari, ularni har bir odam o‘zi uchun o‘zi ekishi va parvarish qilishi kerak. Axir, siz do‘st-yor va qarindoshlar birovniki emas, o‘zingizniki bo‘lishini xohlaysiz-ku, to‘g‘rimi? – deb so‘rabdi chol.

– To‘g‘ri, lekin men ularni qayerga ekishni va qanday parvarish qilishni bilmayman-ku! – debdi haligi kishi.

– Gap shundaki, siz ularni yerga ekmaysiz, bir qultum suv bilan yutib yuborasiz, qanday parvarish qilishni esa qalbingiz o‘rgatadi, faqat siz unga quloq

solsangiz bo‘ldi, ishni orqaga surmay, hozirdan boshlayvering, – deb chol piyolada suv uzatibdi.

Haligi odam suv bilan urug‘larni yutib yuboribdi va shu payt cho‘chib uyg‘onib ketibdi. Ko‘rgan tushi haqida o‘ylay boshlabdi. O‘sha on birdan ko‘ziga keksa onasi ko‘ringanday bo‘libdi, uni anchadan beri ziyorat qilmaganini eslab, shu bugunoq borishga jazm qilib o‘rnidan turibdi.

(“Tarbiya” kitobidan)



1. Rivoyatning asosiy g‘oyasi nima?
2. Badavlat odam nima qidirib bozorga tushdi?
3. Sotuvchining qanday sifatlarini ayta olasiz?
4. Nima uchun sotuvchi badavlat odamga urug‘ berdi?
5. Rivoyatdan qanday xulosa chiqarish mumkin?

jazm – qat’iyat, qat’iy qaror
peshvoz – uchrashuv, kutib olish
qultum – bir yutishli suyuqlik miqdori, bir yutum
ziyorat – tashrif, hurmat yuzasidan keksa va tabarruk kishilar huzuriga tashrif buyurish

Rivoyatni rollarga bo‘lib o‘qing.
Sotuvchining *“Bu narsalar juda arzon, lekin shunga qaramasdan o‘ta kamyobdir”*, degan gapini sharhlab bering.

So‘z o‘yini. Oxirgi bo‘g‘inni inson fe’l-atvoriga oid bir xil ma’noga ega so‘zlar bilan davom ettiring. Kim ko‘p so‘z topsa, shu o‘quvchi g‘olib sanaladi.

Do‘stlik, fidoyilik…
Oqibatli, diyonatli…

Rivoyatni o‘qib, qayta hikoya qilib berishga tayyorlaning.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG‘ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
33-UMUMIY
O‘RTA TA’LIM
MAKTABI



Bolalar va kattalarning ardoqli shoiri Tolib Yo‘ldosh 1919-yili Toshkentning Gulbozor mahallasida oddiy mehnatkash oilada dunyoga kelgan. U turmush tashvishlari bilan bo‘lib, qirq yoshidan so‘ng tayyorlov va kechki kurslarda o‘qidi. Biroq shoirning “Saylayman” nomli ilk she’ri 1937-yilda – 18 yoshida e’lon qilingan. Qizig‘i shundaki, shoir ko‘p she’rlarini topishmoq tarzida bayon etadi.

Qo‘rqoq so‘ziga oid 3 ta fikr ayting.
Botir so‘ziga 2 ta ma’nodosh so‘z toping.
Bu ikki so‘z qatnashgan 1 ta gap tuzing.

Bilasizmi, bolalar?

Tolib Yo‘ldosh

Zo‘ravon kim, qo‘rqoq kim,
Bilasizmi, bolalar?
Bularning har ikkisi –
Qo‘rqoq ko‘zli bolalar.
Zo‘ravonlik nomiga,
Asli qo‘rqoq o‘zlari.
Sag‘al gapga jiringlab,

Ola-kula ko‘zlari.
“Kel, qo‘y”, desang qaramay,
Yoqangizdan tutadi.
Bunday maqtanchoqlardan
Kim polvonlik kutadi?
Polvon boshqa, bilsangiz,
U og‘ir, yuvosh bo‘lar.
Bir kuchin ko‘rsatsami,
Qirq bolaga bosh bo‘lar.
Yo‘q, yo‘q, u juda kamtar,
Manmanlikni xushlamas.
O‘rtoqlarin hurmatlar,
Yoqasidan ushlamas.

Maqtanchoqqa

Sen o‘zingni o‘zing **ko‘kka**
Ko‘tarma ko‘p.
To‘g‘ri, o‘zing **juda** yaxshi –
Bolasan, xo‘p.
Lekin seni boshqa **birov**
Maqtar bo‘lsin,
So‘zlaringga **keksa-yu** yosh
Mahtal bo‘lsin.
Hayotda bir o‘zing emas,
Qaraysanmi?
Hamma **sevib,** maqtashlikka
Yaraysanmi?



1. Berilgan she'rlar nima haqida?
2. Bu ikki she'rning qaysi xususiyatlari bir-biriga o'xshaydi?
3. Siz mard kishi deganda kimni tushunasiz?
4. Nima deb o'ylaysiz, shoir nima uchun zo'ravon va qo'rqoq bolalar haqida yozgan?
5. Siz qo'rqoq odamni qanday tasavvur qilasiz?
6. Maqtanishning salbiy oqibatlarini aytib bering.



mahtal – kutib, qarab qolgan



She'rni ifodali o'qing.
"Maqtanchoqqa" she'ridagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'rniga ma'nodoshini qo'yib, takror o'qing.
"Sag'al gapga jiringlab,
Ola-kula ko'zlari" misrasini so'roq gapga aylantirib o'qing.
"Zo'ravon kim, qo'rqoq kim,
Bilasizmi, bolalar?" misrasini darak gapga aylantirib o'qing.



O'zingizga yoqqan she'rni yod oling.
She'r mazmunini hikoya tarzida yozing.



Mahmud Murodov 1916-yili Toshkentda tug‘ilgan. Kichik-kichik hikoya va lavhalari bilan jurnallarda faol qatnashadi. 1955-yildan “Gulxan” jurnalida mas’ul kotib, 1958-yildan umrining oxirigacha “G‘uncha” jurnalida mas’ul kotib lavozimida bolalar adabiyotining ravnaqiga xizmat qilgan.

Har bir so‘zni qatnashtirib, 4 ta gapdan iborat matn tuzing.

kapalak

kamalak

sumalak

chag‘alay









Kapalak

Mahmud Murodov

Bahromjonning tili biyron chiqqan bo‘lsa ham, hali ko‘p narsalarning nomini bilmasdi. Bir kuni u yugurib uyga kirdi-da, Bahodir akasining qo‘lidan tortqilay boshladi. Menga ham yopishib: “Yuringlar, kattakon kapalak”, – dedi.

Hovliga chiqdik. Yo‘lakda bir chumchuq bolasi yotardi. Inidan tushib ketibdi. Og‘zini kappa-kappa ochadi. Olib qarasam, bir oyog‘i singan. Bahodir ikkimiz “vrachlik” qildik. Qushchaning singan oyog‘iga qog‘oz o‘rab, ip bilan yaxshilab bog‘lab qo‘ydik. Go‘yo taxtakachladik. Iniga qo‘yaylik desak, bo‘g‘otning ichiga qo‘l sig‘maydi. O‘z aqli bilan kirib ham ketmaydi. Tag‘in mushukka yem bo‘lmasin, deb botinka qutisiga solib, uy tokchasiga qo‘ydik. Bahodir pashsha tutib berdi. Bahromjon non uvoq bilan mehmon qilib turdi. Qushcha kundan kun o‘sib, qutichadan chiqib, uy aylanadigan bo‘lib qoldi. Ba’zan ona chumchuqning ovozini eshitib, chirqillab qo‘yadi. Bahromjon esa kapalak gapiryapti, deb sevinchi ichiga sig‘maydi. Buni eshitgan akasi “Kapalak emas, chumchuq”, – deb qo‘yadi.

Bir kuni oyog‘ini yechsak, yarasi bitibdi. Ikki-uch kundan keyin esa pirillab uchadigan, o‘zini derazaga uradigan, tinimsiz chirqillaydigan bo‘lib qoldi.

– Uchirib yuboramizmi chumchuqni? – deb so‘radi Bahodir ukasidan.

Bahodirjon ko‘nmadi:

– Kerakmas, kerakmas! Chumchuqni uchirmayman, – deb turib oldi.

Men, ular qanday to‘xtamga kelishar ekan, deb indamay turdim. Bahodir biroz turgach, so‘z boshladi:

– Bir bola bor ekan. Yiqilib tushib, oyog‘i sinibdi. Uni kasalxonaga olib borishibdi, oyog‘i tuzalgandan keyin ham doktorlar uni uyiga yuborishmabdi. Bola esa erta-yu kech yig‘layveribdi.

Shu yerga kelganda Bahodir biroz to‘xtadi-da, so‘ng so‘radi:

– Bilasanmi, nega yig‘lagan?

– Uyiga yuborishmagani uchun yig‘lagan. Adasini, oyisini sog‘ingan, – deya javob berdi Bahromjon.

– Topding, – dedi Bahodir. – Biz





vrach bo‘ldik. Chumchuqning oyog‘ini tuzatdik. Endi u dadasi bilan onasini sog‘inib yig‘layapti. Uni ushlab o‘tiraveramizmi?

Bahromjon biroz ikkilanib turdi-da:

– Qo‘yib yuboramiz, – dedi.

Chumchuq bolasi derazadan chiqib, gilos shoxiga qo‘ndi, so‘ng pastga qarab bir-ikki chirqilladi-da, uchib ketdi.

– Chumchuq nima dedi? – so‘radi Bahromjon.

– “Bahromjon akamga rahmat!” deb aytdi, – dedi akasi. Bahromjon irg‘ishlab qichqirdi.


– Rahmat! Rahmat!

1. Hikoya nima uchun “Kapalak” deb nomlangan?
2. Aka-ukalar nega chumchuqni uyga olib keldilar?
3. Bahromjon nima uchun xarxasha qilar edi?
4. Bahodir qanday qilib Bahromjonga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatdi?
5. Hikoya qanday insoniy fazilatlar haqida deb o‘ylaysiz?

bo‘g‘ot – qamish solib yopilgan tomning devordan tashqariga chiqib turgan qismi

taxtakachlamoq – singan a’zo suyaklarini taxtakach orasiga olib, siqib bog‘lab qo‘ymoq

Hikoya qahramonlarini ta'riflang.
Hikoyani rollarga bo'lib o'qing.
Hikoyadan Bahromjonning o'z xatosini tushungan joyini topib o'qing.
Rasmlarni ifodalovchi gaplar bilan hikoyani qayta so'zlab bering.



Hikoyani so'zlab berishga tayyorlaning.
Hikoya mazmunini ifodalovchi rasm chizing.

Toshpo‘lat

Abdurahmon Akbar

Kuchlilardan kuchli sanar
Toshpo‘lat o‘zin.
Isbotlamoq bo‘lar bizga
Chinligin so‘zin.

Yo‘l chetida yotgan bo‘lsa
Xarsang‘tosh, g‘o‘la,
Irg‘itadi dast ko‘tarib
Uni bir yo‘la.

Kafti bilan qoq ikkiga
Bo‘ladi g‘ishtni.
Jimjiloqda mixni bukib,
Der: “Shu ham ishmi?”



Qoyil qolib hurmatlardik
Biz uni juda.
Bir kun bilib qoldik bari
Ekan behuda.

...Avtobusda qaytar edik
Uyimiz tomon.
Qo‘l ko‘tarib, yo‘ldan chiqdi
To‘rt-besh otaxon.

Bizlar darrov joy bo‘shatib,
Desak: “Marhamat!”
Oyna tomon yuzin burib
Oldi Toshpo‘lat.

Bor-yo‘g‘i qirq daqiqalik
Yo‘l edi manzil –
Do‘stimizning qilig‘idan
Bo‘ldik mulzam, zil.

Toshpo‘latning polvonligi
Ekan yolg‘on, puch.
Topolmadi tik turishga
U o‘zida kuch.

1. She’r kimning nomidan yozilgan?
2. She’rda qanday sifatlar keltirilgan?
3. Toshpo‘lat qanday xatti-harakati bilan o‘z hurmatini yo‘qotdi?
4. Siz Toshpo‘latni qanday bola deb hisoblaysiz?
5. She’rdan qanday xulosa chiqarish mumkin?
6. Siz ham shunday vaziyatlarni kuzatganmisiz?

mulzam – uyalib qolmoq
zil – xijolat tortmoq

She’rni ifodali o‘qing.
Toshpo‘latga berilgan ta’rifni topib o‘qing.
She’r voqealarini qismlarga bo‘lib, hikoya tarzida so‘zlab bering.

She’r voqealarini o‘zgartiring. Unda Toshpo‘lat xato qilgan xatti-harakatini to‘g‘rilab yozing.



She’rni ifodali o‘qing.
She’r mazmuniga mos maqollar yozing.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash



1. Bo‘limda qanday asarlar bilan tanishdingiz?
2. Bo‘limdagi qaysi asar sizda ko‘proq taassurot qoldirdi? Nima uchun?



Berilgan gaplar bo‘limdagi qaysi asardan olingan? Quyidagi gaplar qaysi qahramonga tegishli?

1

– Nega jahling chiqadi? Hozir tinib qoladi. Men xazonlarni doim suvga supurib tashlayman. Hech narsa qilmaydi, buvim aytgan: “Suv yetti marta dumalasa, toza bo‘larkan”.

2

– Bir bola bor ekan. Yiqilib tushib, oyog‘i sinibdi. Uni kasalxonaga olib borishibdi, oyog‘i tuzalgandan keyin ham doktorlar uni uyiga yuborishmabdi, bola esa erta-yu kech yig‘layveribdi.

3

– Gap shundaki, siz ularni yerga ekmaysiz, bir qultum suv bilan yutib yuborasiz. Qanday parvarish qilishni esa qalbingiz o‘rgatadi, faqat siz unga quloq solsangiz bo‘ldi. Ishni orqaga surmay, hozirdan boshlayvering.

4

– To‘g‘ri, lekin men ularni qayerga ekishni va qanday parvarish qilishni bilmayman-ku!



5

Gapimga quloq solib,
Gap qaytarmay tura tur.
Bir butun qatlamadan
Yarmini o‘zing yebsan.
Nega hech tan olmaysan,
Sira yemadim deysan?

“Shaxmat taxtasi” mashqi. Shifrlangan so‘zlarni toping. Shaxmat doskasidan foydalanib, yashiringan so‘zlarni toping. Ular qaysi mavzularga mos kelishini ayting.

	A	B	D	E
5	u	a	i	v
4	b	r	l	d
3	z	e	ch	s
2	m	n	o‘	o
1	t	k	q	h

1. A2, B3, E1, B4, D5, A4, E2, B2
2. A3, D2, B4, B5, E5, E2, B2
3. E2, A3, E2, E4, B5
4. A2, B5, B4, E4, D4, D5, B1
5. A2, B5, D1, A1, B5, B2, D3, E2, D1.

Bo‘limdan olgan ma’lumotlaringizga tayanib, insoniy fazilatlar haqida hikoya tuzing.

II bo‘lim.
Kitob – aql qayrog‘i



Berilgan so‘zlarning birinchi bo‘g‘inidan yangi so‘z hosil qiling va unga 3 ta ta’rif bering.

kiyik **toblandi**

Siz darslikdan tashqari yana qanday kitoblar o‘qiysiz?
Kitoblarni qanday o‘qish kerak deb hisoblaysiz?

Kitobni qanday o‘qish kerakligi bo‘yicha har kimning tanlovi, didi, fikri turfa va o‘ziga xos, ammo buni ham bilib qo‘yish aslo zarar qilmaydi.

Kitob o‘qish qoidasiga rioya etish shunchalik muhimmi? Mutolaa kitob varaqlashdan nechog‘lik farq qiladi? Bu borada pedagog Mortimer Adlerning ayrim tavsiyalarini keltirishni joiz topdik. Keling, ayrim bosqichlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Kitob sarlavhasini o‘qing, avra-astarini, orqa-oldini tekshiring. Kitobning birinchi sahifasini diqqat bilan ko‘zdan kechiring.

2. Badiiy adabiyotlarga duch kelganda sarlavhalarni ko‘zdan kechirib, yakuniy bobni sinchiklab o‘qing.

3. Kitobdagi ayrim sharhlarni erinmay o‘qib chiqing.

4. Tahlil qilishda eng avval muallif va u yozgan boshqa asarlar bilan biroz qiziqib ko‘ring. So‘ng birrov ko‘z yugurtirib, satrlardagi ma’noni ilg‘ab oling.

5. Mabodo, biror so‘z, jumla yoki fikrga tushunmasangiz, qandaydir ma’lumot anglashilmay qolsa, darrov atrofdan najot izlang: u xoh lug‘at, ensiklopediya bo‘lsin, xoh muallimingiz.

Shundan so‘ng, quyidagi savollarga imkon qadar javob berib ko‘ring:

1. Qo‘limdagi kitob o‘zi nima haqida?

2. Voqealar rivoji nimaga ishora qilmoqda?

3. Asar haqiqatga yaqinmi: butunicha yoki qisman?

4. Bu kitobning ahamiyati qanday? Menga nima beradi?

Asarni tugatgach, ozgina tanqidiy fikrlab, o‘ylaganlaringizni boshqalar bilan baham ko‘ring! Ishonavering, foydasini sezasiz.

Nihoyat, talabchan kitobxon darajasiga yetganingizda o‘qish – bu savollarni to‘g‘ri tartibda berish va ularga javob qidirish bilan nihoyalanadi.

Darvoqe, yana o‘qish payti turfa qaydlar yozish, muddat va belgilar qo‘yib o‘qish ham ziyon qilmaydi. Barchasi sizning foydangizga ishlaydi...



1. Mutolaa deganda nimani tushunasiz?
2. Matndan kitob o‘qishning qanday bosqichlari bilan tanishdingiz?
3. Bu bosqichlarning qaysi biriga amal qilasiz?
4. Talabchan kitobxon darajasiga yetish uchun nima qilish kerak?
5. Kitob o‘qish qoidalariga yana nimalarni kiritgan bo‘lardingiz?

avra-astari – narsalarning tashqi, sirtqi qavati

Matnda keltirilgan savollarni o‘qing va unga javob bering.
Kitob mutolaa qilish bosqichlarini matndan topib o‘qing.
Matndan qanday xulosa chiqarganingizni ayting.

Partadoshingiz bilan kitob o‘qish uchun tavsiyalar ishlab chiqing.

Matnni o‘qing. “Yaxshi kitobxon” mavzusida kichik matn tuzing.



Nabijon Ermat 1949-yil 21-noyabrda Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida tavallud topgan. Uning “99 topishmoq va tez aytish”, “Ellik erkin qushlarim”, “Hayot qo‘shig‘i”, “Sakson sakkiz sara soz” kabi kitoblari nashr qilingan.

Har bir so‘zdagi harflarni kattalashib borish tartibida o‘qing.

TOKIB KUYUB DNSHINOMDA

Hikmatli so‘zni izohlang.



Kitob – kuch

Nabijon Ermat

Kitob sevgan insonga
Kitob erur xazina.
Kitob o‘qimaganlar
O‘zidan qilsin gina.

Kitobsiz uy zim-ziyo,
Yo‘qdir tuynuk, eshigi.
Zulmat uni qurshaydi,
Allalamas beshigi.

Kuch bo‘lsa – kuch topilar
Pashshada ham, baliqda.
Savodsizlik shiori
Hammaga bir qullikda.

Kitobga oshno bo‘lgan
Farqlar yaxshi-yomonni.
Aql bilan ish ko‘rar,
Bekor qiynamas jonni.

Shuning uchun o‘quvchim
Kitob bilan oshno bo‘l.
Zukkolik ulug‘ qurol,
Seni kutar yorqin yo‘l.

Jajjigina qalbingdan
Joy topgin kitobga ham.
E'zoz qilgin non kabi –
Ulg'ayasan, bo'lmay kam.

Bobolardan meros u,
Kitob katta kuch bilsang.
Ilmga yetaklaydi,
U bilan do'st tutinsang.





1. She’r sizda qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otdi?
2. Shoir she’rda kitobga qanday ta’rif bergan?
3. Ayting-chi, kitob katta kuch bo‘lishi mumkinmi? Fikringizni izohlang.
4. Nega kitobi yo‘q uy zim-ziyoga o‘xshatilgan?
5. *“Kitob o‘qimaganlar*
   O‘zidan qilsin gina” misrasini qanday tushundingiz?
6. She’rdan qanday xulosa chiqardingiz?



tuynuk – eski uy devoridagi yorug‘lik, havo kirishi uchun qoldiriladigan teshik



She’rni ifodali o‘qing.
Qofiyadosh so‘zlarni aniqlang.
She’rdagi juft to‘rtliklarni o‘qing va mazmunini izohlang.
Kitob so‘zi ishtirok etgan misralarni o‘qing.



She’rni yod oling.

Yashiringan ikkita so‘zni toping.
Ularning o‘xshash hamda farqli tomonlarini ayting.

N+A+Q+L-N=
B+O+S+A+Y-S+L+I+K-A=

“Aql va Davlat” audioertagini diqqat bilan tinglang.

1

1. Ertak nima haqida ekan?
2. Nega Aql bilan Davlat kuch sinashishga qaror qilishdi?
3. Ular yo‘lda kimni uchratishdi?
4. Davlat o‘z hunarini qanday ko‘rsatdi?
5. Bolaning saroyga borib qolishiga nima sabab bo‘ldi?
6. Ayting-chi, bola qaroqchilarning qarorgohiga qanday borib qoldi?
7. Aql bolani qanday yo‘l bilan qutqarib qoldi?
8. Davlat Aqlning kuchliligiga, usiz hech qanday ishning bitmasligini anglashiga nima sabab bo‘ldi?
9. Ertak qanday yakun topdi? Undan qanday xulosa chiqardingiz?

O‘qing. Fikrlar mazmuni rost yoki yolg‘on ekanligini aniqlang.

1. Qadim zamonda, Marg‘ilon tomonda Aql bilan Davlat bo‘lgan ekan.
2. Bir kuni Aql bilan Davlat ikkovlari katta shaharga borishibdi.
3. Davlatning buyrug‘i bilan bolaning har bir otgan toshi tilla, har bir kesagi gavhar bo‘lib yerga tushaveribdi.
4. Podsho va uning odamlari tilla va gavharlarning qayerdan kelayotganini qidira boshlashibdi.
5. Podsho bolani o‘zi bilan saroyga olib ketib, o‘ziga farzand qilib olibdi.
6. Podshoning rahmi kelib, bolani uyiga qo‘yib yuboribdi.
7. Qaroqchilar bolani o‘z qarorgohida olib qolibdi va bolaga ko‘p kitoblar sotib olib beribdi.
8. Aql bolaga yordam berish niyatida choparlarini yuboribdi.
9. Davlat Aqlning kuchliligiga, usiz hech qanday ish bitmasligiga tan beribdi.

Ertakdan olingan parchalarni o‘qing va voqealar rivojini so‘zlab bering.

1. Qadim zamonda, Marg‘ilon tomonda Aql bilan Davlat bo‘lgan ekan. Bir kuni Aql bilan Davlat uchrashib qolishibdi. Ikkovlari bahslashib qolibdilar. Shunda Davlat Aqlga: – Men sendan ustun turaman. Sen bo‘lmasang ham, men kun ko‘raveraman. Sen keyingi o‘rinda turasan, – debdi.
2. Bu paytda podsho o‘z odamlari bilan sayrga chiqqan ekan. Shunda podshoning yoniga bir tilla kelib tushibdi. Podsho hayron bo‘lib, uni qo‘liga olib qarasa, haqiqatdan ham tilla ekan. So‘ng ketma-ket gavhar ham kelib, oyog‘i ostiga kelib tushibdi. Podsho va uning odamlari bu sir bilan qiziqib qolib, tilla va gavharlarning qayerdan kelayotganini qidira boshlashibdi.
3. Keyin podshoning rahmi kelib, bolani uyiga qo‘yib yuboribdi.
4. – Men hech qanday gunoh ish qilganim yo‘q edi-ku? Meni qo‘yib yuboringlar. Mening bir qari enam bor, u – yolg‘iz. Men jo‘xori qo‘rishim kerak, bo‘lmasa xo‘jayinim urishadi, – deb yig‘labdi.

Ertak mazmuniga mos reja tuzing.

So‘zlarning o‘rnini aniqlang va maqolni o‘qing.

aql bilan olasiz do‘st kitob bo‘lsangiz
bilimni yerdan olishadi oltinni qazib kitobdan



Ertak mazmunini tuzgan rejangiz asosida qayta hikoya qilib bering.



Kitob haqida 2 ta fikr ayting. Kitobga bir so‘z bilan o‘xshatish toping.



Kitobning qimmati

Xudoybergan Shomurodov

Gulnora xolaning uyida kattagina kutubxona bor. Chunki u har gal bozorga tushganida bolalariga shirinliklarga qo‘shib, bitta yoki ikkita badiiy kitob ham olib keladi. Xolaning o‘g‘illari Nortoy bilan Norboy, qizlari Gulmira va Naziralar bo‘sh vaqt topdi deguncha kutubxonalariga kirib, kitob o‘qishga tutinishadi...

Bolalarning sinfdoshlari ham biror kitob kerak bo‘lsa, eng avval ulardan so‘rashadi.

– Nortoy aka, – dedi Nazira nonushta paytida, – “Mehrobdan chayon”ni o‘qib bo‘ldingizmi, dugonam so‘rayapti.

– Ozgina qoldi, bugun maktabga olib ketaman. O‘qib tugatsam, senga aytaman, – dedi Nortoy. U sinfga kiriboq, partasi ustiga kitobni qo‘ydi-yu, o‘qiy boshladi... O‘qishga qiziqib ketganidan dars boshlanib, sinfga muallim kirib kelganini ham sezmadi...

– Eltoyev, kitobni uyda o‘qish kerak edi. O‘zi qanday kitob ekan, boshingni ko‘tarmay o‘qiyapsan, – dedi o‘qituvchi uning yoniga kelib.

– “Mehrobdan chayon”, ustoz. Lekin filmidan ancha farq qilar ekan. Juda ta’sirli. Kitobni singlimning dugonasi so‘ragan edi... Voqealariga qiziqib ketibman, – uzr so‘rab o‘rnidan turdi Nortoy.

– Bizga ham gapirib ber, – chug‘urlashdi bolalar.

– Yaxshi, ammo o‘zingiz o‘qiganingiz boshqacha ta’sir qiladi, – dedi Nortoy jilmayib. Bu gap ustozga ham ma’qul bo‘ldi.

– Faqat bir shart bilan kitobni beraman, – dedi Nortoy. – Uni ehtiyot qilasiz. Varaqlarini yirtmasdan, buklamasdan, iflos qilmasdan o‘qiysiz.

Bolalar rozi bo‘lishdi. Navbat jurnaldagi ro‘yxat bo‘yicha tuzildi. Shu tariqa kitob qo‘lma-qo‘l o‘qila boshlandi.

– Nortoy, “Mehrobdan chayon”ni javondan topmadim, haliyam o‘qib bo‘lmadingmi? – so‘radi Gulnora xola bir kuni o‘g‘lidan.

– Ertaga olib kelaman, uni sinfimizdagi oxirgi o‘quvchi Yahyoyeva o‘qiyapti, – quvonib dedi Nortoy. – Tanaffuslarda faqat shu kitob haqida gaplashyapmiz.

– Juda yaxshi, ammo... – o‘ylanib dedi xola, – bugun anhor bo‘yida shu romanning sochilib yotgan varaqlarini ko‘rib qoldim. Ishqilib bizniki bo‘lmasin-da.

Nortoyning ko‘ngli xijil tortdi-yu, anhor tarafga yugurib ketdi. U sochilgan varaqlardan bir nechtasini qo‘liga oldi-yu, baqirib yubordi. Chunki oyisi har gal yangi kitob olganda uning ichki muqovasi va

3-sahifasiga “Gulnora Xoliqova, shaxsiy kutubxonasi”, deb kitob sotib olingan kun va sanani yozib qo‘yardi.

Ertasiga sinfga kirsa, sinfdoshi Gulsanam yig‘lab o‘tiribdi. Ma’lum bo‘lishicha, Gulsanam Jasurdan kitobni olgach, sinfdayoq o‘qishni boshlabdi. Biroq chiqishga qo‘ng‘iroq chalinishi bilan ketishga shoshilibdi. Natijada kitob esidan chiqibdi. Tushdan keyin shu sinfda o‘qiydigan 3-sinf o‘quvchisi Dilshod kitobni topib olibdi. Partadoshi bilan talashib yirtib qo‘yibdi. Uyga qaytayotib yirtiq kitobni anhor bo‘yiga tashlab yuboribdi...

Uyga borgach, voqeani onasiga aytib berdi. Gulnora opaning avvaliga jahli chiqib, qovog‘ini solib oldi. Keyin o‘g‘lining holatini tushundi shekilli:

– Ko‘p kuyunaverma, o‘g‘lim, shuncha bola o‘qibdi-ku, demak, kitob o‘z vazifasini bajaribdi. Chunki kitobning qimmati uning ko‘p o‘qilganida.



1. Hikoyadan Gulnora xola haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Nortoy qaysi kitobni o‘qiyotgan ekan?
3. Nima uchun bu kitob qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi?
4. Ayting-chi, qaysi voqea Nortoyning ko‘nglini xijil qildi?
5. Kitobning qanday vazifasi bor deb o‘ylaysiz?
6. “Kitobning qimmati uning ko‘p o‘qilganida”, deyilgan fikrni izohlab bering.
7. Hikoyadan chiqargan xulosangizni ayting.

xijil – ko‘ngli g‘ash bo‘lish

Hikoya qahramonlarini ayting. Ularni bosh va ikkinchi darajali qahramonlarga ajrating.
Quyidagi qahramonlarga ta’rif bering:

Gulnora xola *Nortoy* *Gulsanam*

Hikoyaning asosiy g‘oyasini 1 ta gap bilan ifodalang.
Hikoya asosida 2 ta savol tuzing.

Nima uchun…? *Agar … bo‘lsa, nima bo‘ladi?*

Hikoyani o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Yashiringan so‘zlarni toping.

ALNOKITOBNIMJEDO‘STAHMBILGANLARIZ

Kitobni do‘st bilganlar

Zamira Ro‘ziyeva

O‘zligin anglay bilar,
Kitobni do‘st bilganlar.
Baxt yo‘lin tanlay bilar,
Kitobni do‘st bilganlar.

Ko‘zga surtar tuprog‘in,
Suyar gul-u yaprog‘in.
Qovjiratmas chorbog‘in,
Kitobni do‘st bilganlar.

Ona tilim manim der,
Sha’ni yuksalganim der.
Pastlatsa kim – g‘anim der,
Kitobni do‘st bilganlar.

Gurunglarda gulnafas,
Yashnar bog‘dan kelgan sas.
E’tiqodi adashmas,
Kitobni do‘st bilganlar.

Oshin yemas minnatning,
Zalolatning, illatning.
Faxri bo‘lar millatning,
Kitobni do‘st bilganlar.

Asqotar yurt, eliga,
Qalqon do‘l-u seliga.
Mardlik xosdir fe’liga,
Kitobni do‘st bilganlar.

Gumroh dunyo unga yot,
Har kuni bir kashfiyot.
Fozillarga zurriyot,
Kitobni do‘st bilganlar.

Gard yuqmagan sahardir,
Ummon ichra gavhardir.
Asl vatanparvardir,
Kitobni do‘st bilganlar.





1. She’r nima haqida ekan?
2. She’rda kitobni do‘st deb bilgan insonlar qanday ta’riflangan?
3. Sizningcha, muallif she’r orqali nima demoqchi?
4. Ayting-chi, kitob bilan do‘stlashish insonga nima beradi?
5. “Asl vatanparvarlar” deganda kimlarni tushunasiz?
6. Siz she’rga yana qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz?



gumroh – ilmsiz
zalolat – adashganlik
gard – chang



She’rni ifodali o‘qing.
Qofiyadosh so‘zlarni aniqlang.
She’rning har bandini alohida o‘qing va mazmunini izohlang.
Ajratilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.
She’r mazmuni yuzasidan 2 ta savol tuzing.



She’rni ifodali o‘qing.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Bo‘limda o‘rganilgan asarlarni bog‘lab turuvchi asosiy g‘oyani ayting.
2. Sizga bo‘limdagi qaysi asar ko‘proq yoqdi? Nima uchun?
3. O‘rganganlaringiz asosida qanday xulosaga keldingiz?

Harflar rangiga qarab, so‘zlar hosil qiling. So‘zlarni bir-biriga bog‘lang. O‘xshash hamda farqli tomonlarini ayting.

K A T Z O X B I N



Kitob so‘ziga ta’rif bering. Kitob so‘zidagi har bir harf bilan boshlanadigan bo‘limga oid so‘zlarni toping. Topgan so‘zlaringiz ishtirokida matn tuzing.



O‘zingiz foydalanadigan kitoblar asosida faol kitobxonga maslahatlaringizni ishlab chiqing.

Mantiqiy savollar. O‘ylab javob bering.

1. Uning eni, bo‘yi, balandligi yo‘q, ammo o‘lchanadi. U nima?
2. Hamma narsani ko‘rayotganda uni ko‘rmaysiz, hech narsani ko‘rmaganingizda esa ko‘rinadi. U nima?
3. U nima, savol emas, lekin javob berishingiz kerak?

“Kitob – xazina” mavzusida kichik matn yozing. Unda o‘qigan kitoblaringiz haqida ma’lumot bering.



III bo‘lim. Yurtim bo‘ylab sayohat




Berilgan so‘zlardan foydalanib, matn tuzing.

viloyat | Toshkent | tuman | tog‘lar | poytaxt | Amudaryo | xalq | Sirdaryo | hayvonlar dunyosi | o‘simliklar dunyosi

Yurt madhi

Dilshod Rajab

Yurtimizni aylandik,
Maqtovga so‘z sayladik:
Toshkent asli bosh shahar,
Bag‘ri nur-quyosh shahar.



Sirdaryo – gulistonim,
Jizzax – bog‘-u bo‘stonim.
Maydonlarda mard kelgan
Qashqadaryo, Surxonim.

Samarqanddan aytaymi,
Yer yuzining sayqali.
G‘urur qo‘shar ko‘ksiga
Temur bobom haykali.

Ilm uyi Buxoro,
Har toshi hikmat, ma’no.
Xorazmning savlat-u
San’atiga tasanno.

Qoshi qora, qalbi oq,
Qadrdon Qoraqalpoq.
Navoiy nomin olib,
Oltin berar bu tuproq.

Farg‘ona-yu Andijon,
Namangan – shohi gulim.
Nomin tilga olsang bas,
Ochilar bahr-u diling.

Nomi dilga darmonim,
Ulug‘ O‘zbekistonim.





1. She'rni o'qish jarayonida ko'z oldingizga nimalar keldi?
2. She'rda qaysi joy nomlari tilga olingan? Shoir ularga qanday ta'rif bergan?
3. Bu joylar haqida siz yana qanday ma'lumotlar ayta olasiz?
4. O'ylab ko'ring, nega shoir she'rni "Yurt madhi" deb nomlagan?
5. Siz she'rga yana qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz?



madh – maqtov



She'rni ifodali o'qing.
Qofiyadosh so'zlarni aniqlang.
Quyidagi so'zlarning ma'nodoshi qatnashgan misralarni topib o'qing:
diyor, ziyo, jasur, bezagi, chechak, buyuk.
She'r mazmuni yuzasidan savol tuzing va savollaringizni sinfdoshlaringizga bering.



O'zingiz yashaydigan joy haqida 4 ta ma'lumot ayting.



She'rni yod oling.

Siz yurtimizning qaysi go‘shalariga sayohat qilishni xohlardingiz?
Nima uchun?



Yurtim bo‘ylab sayohat[1]

Markaziy Osiyo durdonasi bo‘lmish O‘zbekiston mintaqaning markazida joylashgan bo‘lib, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston bilan chegaradosh.

Yurtimizning o‘ziga xos jihatlarini bilib oling.

Toshkent – O‘zbekiston Respublikasining poytaxti. U Markaziy Osiyoning eng yirik madaniy markazlaridan biridir.

Xorazm o‘zining boy qadimiy madaniyati va noyob tarixiy yodgorliklari bilan insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Xiva Xorazmning qadimiy shaharlaridan biri hisoblanadi. Ushbu shahar UNESCO tomonidan Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Qadimda **Farg‘ona** vodiysi hududidan Xitoydan Yevropaga olib boruvchi Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan. Farg‘ona vodiysida har biri o‘zining noyob yodgorliklari va madaniy qadriyatlariga ega shaharlar mavjud. Misol uchun, Rishton shahri o‘zining kulolchiligi bilan dong taratgan.

Sirdaryo viloyatida bog‘dorchilik va uzumchilik keng rivojlangan. Tumanlar orasida poliz ekinlari bo‘yicha birinchi o‘rinda turuvchi Mirzacho‘l qovunlari respublikamizdan tashqarida ham tanilgan.

Surxondaryo viloyati quruq iqlimga ega. Bunday o‘ziga xoslik uni boshqa hududlardan ajratib turadi. Mazkur viloyatda chorvachilik keng tarqalgani tufayli bu yerda go‘shtli mahsulotlar va taomlar o‘ziga xos, mazali usullarda tayyorlanadi.

Samarqand dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, uning yoshi 2700 yildan ortiqroqdir. Samarqandning me’moriy yodgorliklari UNESCO tomonidan Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga

kiritilgan. Hozirgi kunda Samarqand nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda tan olingan sayyohlik markazlaridan biridir.

Namangan viloyati o‘zining hunarmandchiligi bilan shuhrat qozongan. Chust tumanida tayyorlangan pichoqlar O‘zbekistondan tashqarida ham mashhurdir.

Qadimda **Navoiy** viloyati hududidan Buyuk Ipak yo‘li savdo karvon yo‘llari o‘tgan. Sarmishsoy darasidagi qoyatoshga rasmlar tushirilgan manzilgoh viloyatning betakror joylaridan biridir. Ushbu rasmlar avlodlarimizning hayoti, tarixi, madaniyati haqidagi ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan.

Qashqadaryo viloyati Pomir-Oloy tog‘ tizmasining g‘arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari, Hisor va Zarafshon tizma tog‘lari orasida joylashgan. Qashqadaryo viloyati Buxoro, Surxondaryo, Samarqand viloyatlari hamda Turkmaniston va Tojikiston davlatlari bilan chegaradosh.

Jizzax viloyati ajoyib va maftunkor tabiatga ega. Jizzax tevarak-atrofidagi joylar o‘zining tog‘ landshafti va ignabargli o‘rmonlari bilan mashhur.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘ziga xos tabiatga egadir. Xalq amaliy san’ati asrlar davomida o‘zining gilamdo‘zlik buyumlari bilan mashhur bo‘lib kelmoqda. Zargarona qo‘l mehnatini yorqin to‘yingan rangdagi matolar hamda teri va charmga ishlangan kashtado‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi mahsulotlari tashkil etadi.

Andijon maydoni jihatdan eng kichik va aholisi eng zich joylashgan viloyat. Bu yerdagi ajoyib iqlim mo‘l hosil olish imkoniyatini yaratadi.

Buxoro viloyati shaharlari – ochiq osmon ostida qad ko‘targan noyob arxitektura yodgorliklaridir. Mana bir necha asrlardan buyon o‘zining sharqona uslubda bezatilishi va naqshlarining benuqsonligi bilan butun dunyoni lol qoldirib kelmoqda.

1. O‘zbekiston qayerda joylashgan?
2. Vatanimiz qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
3. Matnda qaysi joy nomlari tilga olingan?
4. Matndan yurtimizga xos bo‘lgan qanday ma’lumotlar bilan tanishdingiz?
5. Siz yurtimiz haqida yana nimalarni bilasiz?
6. Qaysi hududning obidalari UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan?

Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

1. Samarqandning me’moriy yodgorliklari UNESCO tomonidan Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

2. Rishtonda tayyorlangan pichoqlar O‘zbekistondan tashqarida ham mashhurdir.

[1] O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka: kitob-albom. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015. – 272 bet. (Matn o‘zbek, rus va ingliz tillarida)

3. Sarmishsoy darasidagi qoyatoshga rasmlar tushirilgan manzilgoh Navoiy viloyatning betakror joylaridan biridir.

4. Qadimda Farg‘ona vodiysi hududidan Xitoydan Yevropaga olib boruvchi Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan.


Yashiringan so‘zlarni toping. Topgan so‘zlaringiz bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni matndan o‘qing.

	1	2	3	4	5	6	7	8
●	T	O	X	B	M	Y	J	I
▲	Q	Sh	K	V	R	U	F	L
■	A	D	Z	E	N	S	G‘	P















Berilgan rasmlarni bir-biriga bog‘lab, og‘zaki matn tuzing.









Vatanimiz hududlari haqida qiziqarli ma’lumotlar to‘plang.



Ravshan Isoqov 1956-yil O‘sh shahrida tug‘ilgan. Shoirning “Xo‘jayosh afsonasi”, “Sinov” nomli dostonlari, “Oydin, oydin ertagim” kabi she’riy to‘plamlari chop etilgan. Uning asarlarida yorug‘lik, yaxshi niyat balqib turadi.

Orzu yo‘li

Ravshan Isoqov

Tunnel qazdik tog‘ o‘pirib,
Uddaladik chin gapirib.
Buni tarix ko‘rgan qachon?!
Fikr qiling, bir o‘tirib.

Mahv etildi ulkan dovon,
Ipak yo‘li bo‘ldi ravon.
Bo‘ylashay, der osmonlarga,
Yo‘lga chiqdi buyuk karvon.

Ikki kokil – temir izlar,
Quvonadi ko‘rib ko‘zlar.
Yaqin bo‘ldi uzog‘imiz,
Egasimiz siz-u bizlar.

Temir tulpor go‘yo uchoq,
Borar shitob bilmay charchoq.
Qarshi olar dovon osha
Oltin vodiy ochib quchoq.

Orzu yo‘li – Angren-Pop,
Yuz ko‘rsatar yangi bir bob.
Temir yo‘lmas – mo‘jiza bu,
Kelajakka da’vat, xitob.

Ko‘ksimizni qilib qalqon,
Tog‘-toshlarni etib talqon.
Yo‘l yotqizdik Farhod bo‘lib,
Ochildi zo‘r yangi imkon.

Yangi imkon – ulkan orzu,
Maqsadimiz tugal ezgu.
Yetsak deymiz Chin-mochinga,
Dilimizda so‘nmas tuyg‘u.

Ko‘prik bo‘lar xalqlar aro,
Mohiyati zo‘r xalqaro.
Qoyil butun jumla jahon,
Faxrlanar har fuqaro.





1. She’r nima haqida ekan?
2. *Orzu yo‘li* deganda nimani tushundingiz?
3. She’rda temir yo‘lga qanday ta’rif berilgan?
4. Quyidagi satrlarni qanday tushundingiz?
   Yetsak deymiz Chin-mochinga,
   Dilimizda so‘nmas tuyg‘u.



dovon – tog‘ yoki tepalikning baland, ammo oshib o‘tsa bo‘ladigan qulay joyi
Chin-mochin – Janubiy Xitoy, Tibet va Sharqiy Turkiston hududining eski, tarixiy manbalarda uchraydigan nomi



She’rni ifodali o‘qing.
She’rda ajratilgan misralarning mazmunini izohlang.
To‘rtinchi bandni o‘qing. Shoir bu band orqali nima demoqchi ekanligini tushuntiring.



Topishmoqlarning javobini toping.

Gur-gur etar, uchar ketar,
Yurtdan yurtga odam eltar.

Cho‘zilib yotar narvon,
Undan o‘tar uy-karvon.

Topgan so‘zlaringizning bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlarini ayting.

“Dovon” so‘zidagi harflar bilan boshlanadigan O‘zbekiston hududiga oid joy nomlarini ayting.



Dovon – tog‘ning oshib o‘tish qulay bo‘lgan joyi bo‘lib, ilgarilari dovondan piyoda yoki ot-ulovda oshishgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda bir qancha dovonlardan avtomobil yo‘li o‘tadi. Hattoki harakatlanishni yengillashtirish maqsadida tunnellar ham qurilgan.

Qamchiq tunneli – uchta viloyatni Qamchiq dovoni orqali O‘zbekistonning qolgan hududlari bilan bog‘laydi. Tunnel qurilishi bo‘yicha ishlar 2013-yilda boshlangan. Tunnel 2016-yilda harakatlanish uchun ochilgan. Temir yo‘l orqali poyezdlar Angren-Pop yo‘nalishi bilan harakatlanadi.

She’rni ifodali o‘qing.

Orol dengizi haqida 3 ta ma'lumot ayting.

Orol[2]

(Rivoyat)

Ilgari vaqtlarda Orol dengizi bo'lmagan emish. Sirdaryo, Amudaryo esa birga qo'shilib, Lavzan, Ko'hna Urganch orqali Kaspiy dengiziga quyilgan emish. Orol dengizi o'rnida rahmsiz va munofiq Fosilxon hukmronligi ostida Adaq xalqi, Uzboy yoqasidagi muzofotda esa o'zining donoligi va adolatparvarligi tufayli davlat rahbari darajasiga ko'tarilgan Ayozxon boshchiligidagi Boysun xalqi yashagan emish. Fosilxon dahshatli jinoyatlar qilganligi uchun uning qo'l ostidagi davlatni suv bosadi. Bu joyda Orol dengizi hosil bo'lib, har ikkala ulug' daryo shu dengizga quyila boshlaydi. Daryolarning birga qo'shilishidan hosil bo'lgan qadimiy o'zan qurib qoladi. Boysun aholisi Ayozxon boshchiligida Xorazmga ko'chib kelib, bu yerda Urganch deb atalgan podsholikni barpo etadi. adaqlar va ularning hamma shaharlari esa suv ostida qolib halok bo'ladi. Hozir ham havo ochiq kunlari Adaqlar qurgan imoratlarning qoldiqlarini Orol dengizining tubida ko'rish mumkin.

[2] Asotirlar va rivoyatlar. To'plab nashrga tayyorlovchilar: M.Murodov, M.Shayxova. 1990. – 128 bet.



1. Rivoyat nima haqida ekan?
2. Orol dengizi o‘rnida yashagan xalqlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Nima uchun adaqlar yashagan shaharlar suv ostida qoladi?
4. Boysun xalqi qayerda podsholik barpo etadi?
5. Rivoyat qahramonlariga ta’rif bering.

Bilasizmi?

Amudaryo faqat O‘zbekistonda emas, balki Markaziy Osiyo bo‘yicha ham eng sersuv va qudratli daryodir. Daryoning uzunligi 2540 km. Amudaryoni qadimgi yunonlar – Oksus, arablar – Jayhun deb ataganlar.

Uzoq o‘tmishda Amudaryo Qoraqumning o‘rtasidan o‘tib, Kaspiy dengiziga quyilgan. Keyinchalik Orol dengizi tomon yo‘l olgan [3].

Amudaryoning qadimgi irmoqlari – Zarafshon va Qashqadaryoning suvlari butunlay sug‘orishga sarflanib, yo‘l-yo‘lakay qumga singib, cho‘lda tugaydi.

Amudaryoga Tojikiston hududida Kofarnihon daryosi, O‘zbekiston hududida Surxondaryo irmog‘i qo‘shilganidan keyin, Orol dengiziga borib quyilguncha, 1200 km masofada unga biron daryo yoki soy qo‘shilmaydi [4].

[3] Bolalar ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 42 bet.

[4] “Muhofaza” jurnali. –2010. – №9.

Tarixda Misr Nil daryosining “farzandi” deb ta’riflansa, Amudaryoning “farzandi” Xorazm hisoblanadi.

Xorazm xalqining turmush tarzi Amudayo bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aholi suv toshqini xavfi va suv tanqisligini mardonavor yengishda katta tajribaga egadir.



Matnda berilgan daryo nomlarini ayting.
O‘qigan ma’lumotlaringiz asosida 2 ta savol tuzing.
O‘rganganlaringiz asosida fikringizni ayting.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman
...	...	...



Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.



Normurod Narzullayev 1934-yilning 7-iyulida Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi Xo'jahayron qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Uning bolalarga atab yozgan "Vatan seni erkalab", "Shamol ushlagan bola", "Bosh maydon" asarlari nashr etilgan.

Yurtimizdagi daryolar haqida:
- 5 ta daryo nomini ayting;
- Daryolar haqida 3 ta fikr yozing.

Qashqadaryo

Normurod Narzullayev

Keksa emas, yosh daryosan,
Yoshligimga esh daryosan,
Ishi olg'a – besh daryosan,
Qashqadaryo,
Qashqadaryo!

Bolaligim belanchagi,
Daryolarning kelinchagi,



Mangu porloq kelajagi –
Qashqadaryo,
Qashqadaryo!

Sayr etaman sohilingni,
Belga o‘rab kokilingni,
O‘pa-o‘pa gul qo‘lingni,
Qashqadaryo,
Qashqadaryo!

Bosgan izing bog‘ bo‘ladi,
Sen-la ko‘nglim tog‘ bo‘ladi,
Qalbim yashnab, chog‘ bo‘ladi,
Qashqadaryo,
Qashqadaryo!

Farzandingman, onadirsan,
Yurt ishqida yonadirsan,
Do‘stga parvonadirsan,
Qashqadaryo,
Qashqadaryo!

Yo‘llaringda karvon bo‘lay,
Cho‘llaringda darmon bo‘lay,
Dillaringda omon bo‘lay,
Qashqadaryo,
Qashqadaryo!

1. She'r nima haqida ekan?
2. Shoir she'rda daryoga qanday ta'rif bergan? Uni nimalarga o'xshatgan?
3. Quyidagi misralar orqali daryoning qaysi xususiyatlari madh etilgan?
   Bolaligim belanchagi,
   Daryolarning kelinchagi,
   Mangu porloq kelajagi,
   Qashqadaryo, Qashqadaryo!
4. *"Sayr etaman sohilingni,*
   Belga o'rab kokilingni", deganda nimani tushundingiz?

She'rni ifodali o'qing.
Qofiyadosh so'zlarni toping.
Yurtimiz daryolari qanday paydo bo'lgani haqida 2 ta ma'lumot ayting.

She'rni ifodali o'qing.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

1. Bo‘limda qanday asarlar bilan tanishdingiz?
2. Bo‘limdagi qaysi asar sizda ko‘proq taassurot qoldirdi? Nima uchun?

Rasmda tasvirlangan obidalar nomini va ular qayerda joylashganini ayting.









So‘zlarning oynadagi aksini o‘qing.

Toshkent Farg‘ona Xorazm Amudaryo
Sirdaryo Orol Samarqand Buxoro Xiva
Surxondaryo Qoraqalpog‘iston Navoiy
Jizzax Andijon Namangan Qashqadaryo

Joy nomlari bilan bog‘liq bo‘limda o‘rgangan ma’lumotlaringizni ayting.


Berilgan rasmlar bo‘limdagi qaysi asarga mos keladi? Rasmlarni bir-biriga bog‘lab, og‘zaki matn tuzing.





“Yozgi ta’tildagi sayohat” mavzusida matn tuzing.

Siz yozgi ta'tilingizni qanday o'tkazishni rejalashtiryapsiz?
Berilgan rasmlardan foydalanib, rejangiz asosida matn tuzing.



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

I bo‘lim.
Bola shirin – odobi undan shirin 3
1-mavzu. Bir butun oy, o‘n ikki yulduz. *Jo‘ra Rahim* 4
2-mavzu. Izza. *Muhabbat Hamidova.* 10
3-mavzu. Mehr urug‘i 14
4-mavzu. Bilasizmi, bolalar? *Tolib Yo‘ldosh* 18
5-mavzu. Kapalak. *Mahmud Murodov* 21
6-mavzu. Toshpo‘lat. *Abdurahmon Akbar* 26
7-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash 29

II bo‘lim.
Kitob – aql qayrog‘i 32
8-mavzu. Kitobni qanday o‘qish kerak 33
9-mavzu. Kitob – kuch. *Nabijon Ermat* 37
10-mavzu. Aql va Davlat 41
11-mavzu. Kitobning qimmati. *Xudoybergan Shomurodov* 45
12-mavzu. Kitobni do‘st bilganlar. *Zamira Ro‘ziyeva* 49
13-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash 52

III bo‘lim.
Yurtim bo‘ylab sayohat 54
14-mavzu. Yurtim madhi. *Dilshod Rajab* 55
15-mavzu. Yurtim bo‘ylab sayohat 58
16-mavzu. Orzu yo‘li. *Ravshan Isoqov* 64
17-mavzu. Orol 68
18-mavzu. Qashqadaryo. *Normurod Narzullayev* 71
19-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash 74

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Aydarova Umida Baxtyarovna
Azizova Nodira Kudratullayevna

O‘qish savodxonligi

3-sinf
IV qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”
Toshkent – 2023

Muharrir	*M. Nishonboyeva*
Badiiy muharrir	*A. Sobitov*
Musahhih	*X. Serobov*
Rassomlar:	*M. Sulaymonova, R. Ismailova, T. Daminov*
Kompyuterda sahifalovchi	*D. Konoplich*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 10.08.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli.
“Arial” garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo‘rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m2 qog‘oz.
Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8.
Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-611.
“O‘zbekiston” NMIUda chop etildi.

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslikni olgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikni qaytarib berishdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning oldingi holati
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan, sahifalarida yozuvlar va chiziqlar yo'q
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas